



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда 0561-рақам билан рўйхатга олинган.
ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

Таҳририят ижодий жамоаси:
Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир ўринбосари:
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:
и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида тарқатилади.

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар, Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Таҳририят кенгаши раиси:
М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:
Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:
Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор
М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.
М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.
М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.
И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.
Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари
С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.
А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.
О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.
З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори
Л.Н.Халикова– СамИСИ профессори, DSc
Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc
А.М.Каримова– СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Саидахрор Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ақлий меҳнатнинг ўзига хос хусусиятлари, унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари	5
Умар Худайбердиев “Яшил” иқтисодиёт ривожланишининг муҳим омиллари	9
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Зарина Муродовна Мухаммедова Хизматлар соҳасининг виртуаллаштирилган инновацион инфратузилмасини шакллантиришда электрон иқтисодиёт воситаларидан фойдаланиш имкониятлари	12
Sirojiddin Abdullayevich Maxmudov Raqamli iqtisodiyot sharoitda elektron savdoning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar	16
Jonibek Adxam o‘g‘li Maxmudov Mintaqani barqaror rivojlantirishda turizm sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlar va ularda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	22
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Бекзод Низамкулович Атамуродов Respublikamizda maxsus iqtisodiy zonalarning bugungi kundagi holati tahlili	28
ТАДБИРКОРЛИК, МЕҲНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Ашур Али Рустам ўғли Латипов Камбағалликни қисқартиришда иш билан бандликни таъминлашнинг стратегик йўналишлари	31
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Тулкин Саидахмедович Шарипов Овқатлантириш хизматларини ривожлантиришда оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш имкониятлари	39
Шохида Ильясовна Артикова, Дилафруз Бахриллоевна Абдуллаева Развитие сферы услуг в условиях цифровой трансформации экономики	43
Zafarjon A’zamovich Axmedov Tibbiy xizmatlari bozorida iste’molchi (bemor)larning talabini baholash borasida yondoshuvlari	47
Мурод Нозирович Ибрагимов Совершенствование формы и содержания технического задания на оказание консультационных услуг	51
Фарход Анварович Сафаров Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини такомиллаштиришда инновацион жараёнларнинг хусусиятлари	57
Nasiba Ergasheva Keytering autsorsing xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy tryendi sifatida	62
Khudoynazar Ergashev, Azizbek Khabibullaev, Odiliya Soibnazarova Supporting the service sector from the state government mechanism	67

8. UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization.
9. Williams, P. (2024). Socio-economic impacts of ecotourism development. Journal of Sustainable Tourism, 32(1), 112-125.

П.Холматова **Организационно-экономический механизм организации и развития экотуризма в регионах**	**P.Kholmatova** **Organizational and economic mechanism of organization and development of ecotourism in the regions**
Аннотация. В данной статье рассмотрены организационно-экономические механиз-мы развития и организации экотуризма в регионах. На основе мирового опыта проанализированы возможности развития экотуризма в Узбекистане, существующие проблемы и их решения. В статье рассмотрены современные механизмы, финансовые инструменты и правовые основы развития экотуризма.	**Abstract.** This article explores the organizational and economic mechanisms for the development and organization of ecotourism in the regions. Based on the world experience, the possibilities of developing ecotourism in Uzbekistan, the existing problems and their solutions have been analyzed. The article examines the modern mechanisms, financial instruments and legal framework for the development of ecotourism.
Ключевые слова: экотуризм, организационно-экономический механизм, экономический рост, устойчивое развитие, нормативно-правовые документы, туристские ресурсы, охрана окружающей среды, уровень занятости.	**Keywords:** ecotourism, organizational-economic mechanism, economic growth, sustainable development, regulatory and legal documents, tourist resources, environmental protection, employment level.

Aziza Yusufbekovna Talibova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSKURSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish masalalari tahliliga bag‘ishlangan. Raqamli texnologiyalarning ekskursiya xizmatlariga ta’siri, zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va ularning samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanish istiqbollari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, ekskursiya xizmatlari, mehmonxona sohasi, raqamlashtirish, elektron tijorat, onlayn xizmatlar.

Kirish. Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi turli sohalarda ulkan o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan, turizm va ekskursiya xizmatlari raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq holda jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni innovatsion texnologiyalar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt va virtual reallik (VR) yechimlari orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ko‘plab sayyohlik yo‘nalishlari ekskursiyalarni onlayn bron qilish, virtual turlar va interaktiv xaritalar orqali taklif qilmoqda. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda sun’iy intellekt bilan ishlovchi virtual gidlar va avtomatlashtirilgan ekskursiya tizimlari keng joriy etilgan. Xitoy va Janubiy Koreya kabi texnologik jihatdan ilg‘or davlatlar esa sayyohlar uchun raqamli identifikatsiya tizimlarini va big data asosidagi turistik tahlillarni qo‘llamoqda.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi davrida ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi yanada tezlashdi. Ko‘plab muzeylar, tarixiy obidalar va diqqatga sazovor joylar virtual ekskursiyalarni joriy qildi. Masalan, Luvr muzeyi, Britaniya muzeyi, Vatikan muzeyi kabi yirik diqqatga sazovor maskanlar o‘z ekskursiyalarini onlayn rejimga o‘tkazdi. Bu esa sayohatchilarga masofadan turib madaniy meros bilan tanishish imkonini berdi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni ekskursiya xizmatlariga tatbiq etish bugungi kunda global miqyosdagi eng dolzarb tendensiyalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston hukumati ham turizm va ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha qator

chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, mamlakatda 2016-yildan boshlab turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi” doirasida turizm infratuzilmasini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalasi alohida e’tiborga olingan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va infratuzilmasini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori doirasida mamlakatda turistik xizmatlarni modernizatsiya qilish, onlayn xizmatlar va mobil ilovalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator dasturlar tasdiqlandi. Ushbu hujjatda ekskursiya xizmatlariga blokcheyn texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamli xaritalash tizimlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Shu sababli, ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish mavzusi bugungi kunda dolzarb va strategik ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar ushbu sohaning muhim yo‘nalishlarini ochib beradi. D. Buhalis [6] turizmda raqamli texnologiyalarning ta’siri va onlayn xizmatlarning mijozlarga qulaylik yaratishdagi rolini tahlil qilgan. J. Pesonen va S. Komppula [7] tadqiqotlarida ekskursiya xizmatlarini onlayn bron qilish tizimlari va interaktiv xizmatlarning turistik sohadagi ahamiyati yoritilgan. UNWTO [9] va OECD [10] hisobotlarida esa turizm sohasining global raqamlashtirish jarayonlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tendensiyalar tahlil qilingan.

O‘zbekistonda ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari [1,2] hamda Turizm va Madaniy meros vazirligi [3] tomonidan belgilangan davlat dasturlarida o‘z aksini topgan. I. Jo‘raboyev [11] va Sh. Ergashev [12] O‘zbekistonda turistik infratuzilmani raqamlashtirishda duch kelinayotgan muammolarni va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rgangan. Shu bilan birga, Google Travel Insights [13] va Statista [14] hisobotlarida turistik xizmatlarni onlayn bron qilish tizimlarining jahon bozoridagi rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tahlil, taqqoslash va empirik tadqiqot usullari qo‘llanilgan. Raqamli ekskursiya xizmatlarining samaradorligini baholash uchun statistik ma’lumotlar va xalqaro tajribalar tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy texnologiyalar bugungi kunda ko‘plab sohalarni tubdan o‘zgartirib, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirmoqda. Ayniqsa, turizm va ekskursiya xizmatlari sohasida raqamlashtirish yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Agar ilgari sayyohlar gid yollash yoki ekskursiya agentliklari orqali xizmat olishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning aksariyati internet orqali o‘ziga mos ekskursiyalarni bron qilish, virtual turlarni tomosha qilish yoki sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan audiogid xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi iqtisodiy jihatdan katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Birinchi navbatda, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish jarayoni avtomatlashtirilishi natijasida turizm sohasidagi ish samaradorligi ortmoqda. Masalan, ilgari ekskursiya agentliklari sayyohlarga ekskursiya yo‘nalishlarini taklif qilib, ularni individual ravishda tashkil qilishga majbur bo‘lsa, bugungi kunda ushbu jarayon raqamli platformalar orqali ancha soddalashtirilgan. Sayyohlar mobil ilovalar yordamida o‘zlari uchun eng qulay yo‘nalishlarni tanlashi, bron qilish va hatto virtual gid xizmatlaridan foydalanishi mumkin.[1]

Bundan tashqari, raqamlashtirish turizm sohasining daromadliligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Ko‘plab davlatlar o‘z turizm salohiyatini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. Masalan, interaktiv xaritalar, onlayn bronlash tizimlari, sun’iy intellekt orqali ishlaydigan tavsiyalar tizimi sayyohlarni aniq yo‘naltirishga va ularga xizmatlar ko‘rsatishga imkon yaratmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda muhim ishlar olib

[1]https://www.researchgate.net/publication/380502994_O%27ZBEKISTONDA_EKSKURSIYA_XIZMATINI_TASHKIL_QILISHNING_DOLZARBLIGI

borilmoqda. Jumladan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarimizda raqamli gid xizmatlari joriy qilinmoqda. Ijtimoiy jihatdan qaraganda, ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi sayyohlarning imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Agar ilgari sayyohlar mahalliy gidlar bilan bog‘lanishi yoki faqatgina tarjimonlar xizmatidan foydalanishi lozim bo‘lsa, hozirda mobil ilovalar, sun’iy intellekt bilan ishlovchi virtual gidlar va onlayn tarjima xizmatlari ekskursiyalarni mustaqil tashkil qilishga yordam bermoqda. Bu esa turizmning ommaboplashishiga, yanada qulay va arzon bo‘lishiga olib kelmoqda.[1]

Yana bir muhim jihat – ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi orqali turizm sohasi barqaror rivojlanmoqda. Turistik manzillarga ortiqcha yuklama tushmasligi uchun big data tahlillari yordamida sayyohlar oqimi boshqarilmoqda, bu esa tabiiy va madaniy meros obyektlarining ortiqcha ekspluatatsiya qilinishining oldini olishga yordam beradi. Shu sababli, raqamlashtirish nafaqat sayyohlar uchun, balki turizmni boshqarish va rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi iqtisodiy jihatdan turizm sohasining daromad olish imkoniyatlarini kengaytiradi, ijtimoiy jihatdan esa sayyohlarga qulaylik yaratib, ularning mustaqil sayohat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayon O‘zbekiston uchun ham muhim bo‘lib, mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni so‘nggi yillarda sezilarli darajada jadallashdi. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, xususiy sektorning faol ishtiroki va ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar turizm infratuzilmasini takomillashtirish bilan birga, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, sayyohlar uchun qulay muhit yaratish va iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi omillardan biriga aylandi. Bugungi kunda ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi turizmni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, davlat tomonidan qabul qilingan qator qarorlar va dasturlar asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, “E-Visa” tizimi joriy etilishi xorijiy sayyohlar uchun O‘zbekistonga tashrif buyurish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirdi. Shu bilan birga, mamlakat bo‘ylab elektron bronlash tizimlari ishga tushirilgani mehmonxonalar, ekskursiya agentliklari va boshqa turistik xizmatlarni onlayn tartibda boshqarish imkoniyatini yaratdi.[2]

Shu bilan birga, yirik shaharlar va turistik markazlarda raqamli gid xizmatlari joriy qilinmoqda. Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida mobil ilovalar, interaktiv xaritalar, audiogidlar va sun’iy intellekt asosida ishlovchi virtual gidlar sayyohlarga o‘z ekskursiyalarini mustaqil tashkil qilish imkoniyatini bermoqda. Ushbu texnologiyalar orqali sayyohlar obidalar, tarixiy yodgorliklar va turistik maskanlar haqida batafsil ma’lumot olish imkoniga ega bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi tomonidan “Digital Uzbekistan 2030” dasturi doirasida turizm sohasini raqamlashtirish bo‘yicha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar turistik xizmatlarning sifatini oshirish, ularning shaffofligini ta’minlash va xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan. Xususan, sun’iy intellekt asosida sayyohlarga moslashtirilgan tavsiyalar beruvchi tizimlar joriy qilinmoqda. Bundan tashqari, sayyohlar uchun maxsus chatbot xizmatlari ishlab chiqilmoqda, bu orqali ular mehmonxonalar, transport va diqqatga sazovor joylar haqida real vaqt rejimida ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish faqat davlat darajasidagi tashabbus emas, balki xususiy sektor ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda. IT-kompaniyalar va turizm sohasida ishlovchi tadbirkorlar mobil ilovalar, onlayn xizmatlar va innovatsion yechimlar orqali turizm ekotizimini yanada rivojlantirishga harakat qilmoqda. Mahalliy startaplar tomonidan ishlab chiqilgan raqamli ekskursiya ilovalari sayyohlar uchun qulay va moslashtirilgan xizmatlarni taklif etmoqda. Davlat esa soliq imtiyozlari va investitsiya qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali raqamli turizmni rivojlantirishni rag‘batlantirmoqda.

Raqamlashtirishning yana bir muhim jihati – turizm xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalarning keng

[1] https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/1074

[2]https://www.researchgate.net/publication/375948282_O%27ZBEKISTONDA_TURIZM_SOHASINING_RIVOJLANISHINI_DAVLAT_TOMONIDAN_QO%27LLABQUVVATLASH_MEXANIZMINI_TAKOMILLASHTIRISH

joriy etilishi turistik xizmatlardan tushadigan daromad hajmini oshirish imkonini beradi. Xususan, sayyohlar onlayn bronlash tizimlari orqali turistik paketlar, mehmonxonalar va ekskursiyalarni rejalashtira olishlari – bu nafaqat qulaylik yaratadi, balki xizmatlar orasidagi raqobatni kuchaytirib, ularning sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish xizmatlarning yanada avtomatlashtirilgan bo‘lishiga imkon yaratmoqda. Masalan, sayyohlarga shaxsiylashtirilgan yo‘nalishlar tavsiya qiluvchi tizimlar yoki turistik chatbotlar joriy qilinishi orqali xizmat ko‘rsatishning yangi bosqichi shakllanmoqda. Raqamlashtirish orqali turistik xizmatlarning shaffofligi ham ta’minlanmoqda. Blokcheyn texnologiyalari asosida mehmonxonalar, ekskursiyalar va boshqa turistik xizmatlar bo‘yicha real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa xizmatlarning sifatini oshirish, mijozlarning xavfsizligini ta’minlash va firibgarlikning oldini olishga yordam beradi.[1]

Umuman olganda, ekskursiya xizmatlarining raqamlashtirilishi O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlarning sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu jarayonni to‘g‘ri boshqarish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekiston mintaqadagi eng ilg‘or turistik markazlardan biriga aylanishi mumkin.

Ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni turizm sohasining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, balki iqtisodiy samaradorlikka ham erishish mumkin. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish mijozlarning qulayliklarini oshirish bilan bir qatorda, biznes subyektlari uchun ham yangi daromad manbalarini yaratmoqda. Masalan, Yevropa mamlakatlarida onlayn bronlash tizimlari va interaktiv gid xizmatlarining keng joriy etilishi natijasida ekskursiya xizmatlaridan tushadigan daromad hajmi sezilarli darajada oshgan.

O‘zbekiston tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizda turizm sohasi iqtisodiyotni rivojlantirishda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, “Digital Uzbekistan 2030” dasturi doirasida ekskursiya xizmatlarini modernizatsiya qilish, ularni raqamli platformalar bilan integratsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarimizda mobil ilovalar, sun’iy intellekt asosida ishlovchi gidlar, virtual ekskursiyalar va elektron bronlash tizimlari joriy etilgan. Ushbu innovatsion xizmatlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro sayyohlar uchun ham qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish orqali xizmatlar sifati oshishi va turistik biznesning rentabelligi yuqorilashi kuzatilmoqda. Masalan, elektron bronlash va sun’iy intellekt asosida yo‘naltirilgan ekskursiya xizmatlari operatsion xarajatlarni 30-40% ga kamaytirish imkonini bermoqda. Bu esa sayyohlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirish bilan birga, turizm tashkilotlariga moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.[2]

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida xizmatlarni targ‘ib qilish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish turizm biznesining daromadliligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda big data va sun’iy intellekt texnologiyalari orqali sayyohlarning xatti-harakatlari, qiziqishlari va afzalliklarini o‘rganish imkoniyati mavjud. Ushbu ma’lumotlar asosida sayyohlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif qilinmoqda, bu esa ularning qoniqish darajasini oshiradi va turistik xizmatlardan foydalanish hajmini kengaytiradi. Biroq, ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish jarayonida ma’lum muammolar ham mavjud. Ulardan biri – raqamli infratuzilmaning hali to‘liq shakllanmaganligi, xususan, chekka hududlarda internet sifati pastligi yoki texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kadrlar yetishmovchiligi. Shu bois, turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar va davlat idoralari tomonidan raqamli savodxonlikni oshirish, mutaxassislarni tayyorlash va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Umuman olganda, ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish turizm sohasida rivojlanish-

[1] https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-15-05-11-59_d4958c7dec23b111eeb01e58adb66705.pdf
[2] https://uniwork.buxdu.uz/resurs/21311_1_E1B79D497816FA6B68005C54C55D15F24E659A24.pdf

ning ajralmas yo‘nalishi bo‘lib, u xizmat ko‘rsatish sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri boshqarish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekiston xalqaro turizm bozorida o‘z mavqeini mustahkamlashga erishishi mumkin. Shu sababli, kelgusida turizm va texnologiyalarni birlashtirish bo‘yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish, investitsiyalarni jalb qilish va raqamli xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish mamlakat turizm sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotdan xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni turizm sohasining jadal rivojlanishiga, turistik xizmatlar sifatining oshishiga va xorijiy sayyohlar oqimining ko‘payishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kelgusida ushbu jarayonni jadallashtirish va ilg‘or raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali mamlakatimiz mintaqadagi yetakchi turistik markazlardan biriga aylanishi mumkin. Shu sababli, turizm sohasi uchun maxsus raqamli platformalarni ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklik doirasida raqamlashtirish loyihalarini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-238-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi. O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi (2021–2025 yillar). Toshkent, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. Digital Uzbekistan 2030 dasturi. Toshkent, 2023.
5. N. Abdulbekova. O‘zbekistonda Smart-turizmini rivojlantirishning ahamiyati // Innovations in Technology and Science Education – SJIF 2023: –5.305 volume.–2 ISSUE.–15 671-675 b.
6. D. Buhalis. eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson Education, 2003.
7. J. Pesonen & S. Komppula. "Digital Transformation in Tourism: Case Studies and Future Trends." Journal of Travel Research, 2022, 61(4), 789-804.
8. World Economic Forum. Travel and Tourism Competitiveness Report 2021. www.weforum.org.
9. UNWTO. Tourism Digital Transformation: Key Trends and Challenges. United Nations World Tourism Organization, 2022.
10. OECD. Digitalization and Innovation in Tourism: A Global Perspective. Organisation for Economic Co-operation and Development, 2021.
11. I. Jo‘raboyev. O‘zbekiston turizm sektorida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi va ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish muammolari. Toshkent, 2023.
12. Sh. Ergashev & L. Qodirova. "O‘zbekistonda turistik infratuzilmani rivojlantirish va davlat siyosati." O‘zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlari Jurnali, 2023, 4(2), 211-225.
13. Google Travel Insights. Global Trends in Digital Tourism and Online Booking Patterns. Google Research Reports, 2022.
14. Statista. Global Online Booking Trends in the Travel Industry. www.statista.com, 2023.
15. Eurostat. Digital Economy and Society in Europe: Tourism Focus. European Commission, 2022.
16. Xitoy Xalq Respublikasi Turizm vazirligi. Big Data and AI in the Development of Smart Tourism in China. Beijing, 2020.
17. H. Martin & P. Williams. "The Role of Mobile Applications in Enhancing Tourist Experiences: A Comparative Study." Journal of Tourism Technology, 2023, 14(1), 115-132.
18. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha Jahon Banki hisobotlari. Smart Tourism: How Digitalization Can Improve Visitor Experiences and Boost Economic Growth. Washington, D.C., 2021.

А.Талибова **Эффективные пути развития экскурсионных услуг в условиях цифровой экономики Узбекистана**	**A.Talibova** **Effective ways to develop excursion services in the context of Uzbekistan’s digital economy**
Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития экскурсионных услуг в Узбекистане в условиях цифровой экономики. Изучено влияние цифровых технологий на экскурсионные услуги, современные организационно-экономические механизмы и их эффективность. Также освещены реформы, проводимые в данной сфере в Узбекистане, и перспективы развития. **Ключевые слова:** цифровая экономика, экскурсионные услуги, гостиничный сектор, цифровизация, электронная коммерция, онлайн-услуги.	**Abstract.** This article examines the development of excursion services in Uzbekistan in the context of the digital economy. The impact of digital technologies on excursion services, modern organizational and economic mechanisms, and their effectiveness are analyzed. In addition, the reforms implemented in this sector in Uzbekistan and prospects for future development are highlighted. **Keywords**: digital economy, excursion services, hospitality sector, digitalization, e-commerce, online services.

Нодир Нозимович Негматов – независимый консультант по маркетинговым исследованиям

РОЛЬ ВИЗУАЛЬНЫХ И КУЛЬТУРНЫХ СТИМУЛОВ УЗБЕКИСТАНА В ФОРМИРОВАНИИ ЛОЯЛЬНОСТИ ТУРИСТОВ: НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД

Аннотация. В статье анализируется влияние визуальных и культурных стимулов Узбекистана на нейрофизиологические реакции туристов методами нейромаркетинга. Выявлены корреляции между архитектурными деталями, узбекской национальной символикой, используемые в сюзане, эмоциональным возбуждением и лояльностью, а также межкультурные различия. Предложены рекомендации для развития туристической индустрии.

Ключевые слова: нейромаркетинг, туризм, лояльность туристов, визуальные стимулы, культурные стимулы, эмоциональное вовлечение, айтрекинг, кожно-гальваническая реакция, индекс потребительской лояльности, кросс-культурные различия, маркетинг в туризме.

Введение. Туризм является одной из динамично развивающихся отраслей экономики Узбекистана, демонстрируя значительный рост в последние годы. Этому способствовал ряд факторов, включая упрощение визового режима для граждан многих стран, активное продвижение туристического потенциала страны на международной арене и улучшение туристической инфраструктуры. По данным Государственного комитета Республики Узбекистан по развитию туризма, в 2019 году страну посетило 6,7 миллиона иностранных туристов, что на 26% больше, чем в 2018 году (до начала пандемии COVID-19) [1]. После значительного спада, вызванного пандемией, наблюдается постепенное восстановление туристического потока. В 2023 году Узбекистан посетили 5,2 миллиона иностранных туристов [2], что свидетельствует о возвращении интереса к стране.

Несмотря на богатейшее культурное и историческое наследие Узбекистана, а также предпринимаемые усилия по развитию туристической отрасли, существует проблема, связанная с относительно низким уровнем повторных посещений страны туристами. Многие туристы, посетив Узбекистан однажды, не возвращаются, что ограничивает потенциал долгосрочного роста отрасли. Это указывает на необходимость более глубокого понимания факторов, влияющих на формирование лояльности туристов и их желания вернуться.

Традиционные методы исследования, такие как опросы и анкетирование, часто не позволяют выявить скрытые, неосознаваемые мотивы, влияющие на поведение туристов. Туристы не всегда могут точно сформулировать свои впечатления и причины,